



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA'LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali



2026-YIL 4-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov
Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov
Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev

TAHRIR HAY'ATI

Aniq va tabiiy fanlar: k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar: s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d., prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d., dost. M.Asqarova, PhD, dots. M.Asranboyeva.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD., dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev.

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, **Faks:** (0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi **Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi** asosida chop etiladi. Jurnal **Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan.** UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

INGLIZ IDIOMALARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI

Anvarbekova Iroda Abrorbek qizi

University of Business and Science

irodaanvarbekova0@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tilidagi idiomalarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan lingvopragmatik va lingvomadaniy muammolar tadqiq etilgan. Tadqiqotda idiomalarning semantik yaxlitligi, milliy-madaniy xususiyatlari hamda kommunikativ vazifalari tahlil qilinib, ularni tarjima qilishda qo'llaniladigan asosiy strategiyalar aniqlangan. Xususan, frazeologik ekvivalent, tavsifiy tarjima, modulyatsiya, adaptatsiya va kompensatsiya usullarining tarjima samaradorligiga ta'siri ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: idioma, frazeologik birlik, tarjima transformatsiyasi, lingvopragmatika, lingvomadaniyat, ekvivalentlik, pragmatik adekvatlik, kommunikativ samaradorlik.

PROBLEMS OF TRANSLATING ENGLISH IDIOMS INTO UZBEKISTAN AND THEIR SOLUTIONS

Abstract: This article examines the linguopragmatic and linguocultural problems arising in the translation of English idioms into Uzbek. The study analyzes the semantic integrity, cultural characteristics, and communicative functions of idiomatic expressions and identifies the main strategies used in their translation. In particular, the effectiveness of such strategies as phraseological equivalence, descriptive translation, modulation, adaptation, and compensation is discussed.

Keywords: idiom, phraseological unit, translation transformation, linguopragmatics, linguoculture, equivalence, pragmatic adequacy, communicative effectiveness.

ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА АНГЛИЙСКИХ ИДИОМ НА УЗБЕКИСТАН И ИХ РЕШЕНИЯ

Аннотация: В данной статье исследуются лингвопрагматические и лингвокультурологические проблемы, возникающие при переводе английских идиом на узбекский язык. Рассматриваются семантическая целостность идиоматических выражений, их национально-культурные особенности и коммуникативные функции. Анализируются основные стратегии перевода идиом, включая использование фразеологических эквивалентов, описательный перевод, модуляцию, адаптацию и компенсацию.

Ключевые слова: идиома, фразеологическая единица, переводческая трансформация, лингвопрагматика, лингвокультура, эквивалентность, прагматическая адекватность, коммуникативная эффективность.

KIRISH

Globallashuv sharoitida tillararo muloqotning kengayishi tarjima faoliyatiga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda. Xususan, ingliz tilidan o'zbek tiliga badiiy, publitsistik va ilmiy matnlarni tarjima qilish jarayonida frazeologik birliklar, ayniqsa idiomalar, tarjimon oldiga murakkab vazifalarni qo'yadi. Buning asosiy sababi shundaki, idioma tilning oddiy leksik birligi emas, balki xalqning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlari, milliy tafakkuri va kommunikativ amaliyoti mahsuli sifatida shakllangan murakkab semantik konstruksiyadir. Shu bois idiomalarni tarjima qilish masalasi nafaqat lingvistik, balki lingvomadaniy, kognitiv va pragmatik nuqtai nazardan ham tadqiq etilishi lozim. So'nggi yillarda tarjimashunoslikda ekvivalentlik tushunchasi sezilarli darajada kengaydi. Avvalgi tadqiqotlarda asosiy e'tibor til birliklarining shakliy mosligiga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy yondashuvlarda tarjimaning kommunikativ samaradorligi va pragmatik adekvatligi ustuvor mezon sifatida qaralmoqda. Bu esa idiomalarni tarjima qilishda ularning lug'aviy tarkibini emas, balki nutqdagi vazifasi, ekspressivligi va adresatga ko'rsatadigan ta'sirini saqlash muhimligini ko'rsatadi.

Ingliz va o'zbek tillari turli til oilalariga mansub bo'lishi bilan birga, ularning konseptual dunyoqarashi ham sezilarli darajada farqlanadi. Ingliz tilidagi ko'plab idiomalar dengizchilik, ovchilik, sport, Injil syujetlari yoki Yevropa madaniy an'analari asosida shakllangan. O'zbek tilidagi frazeologik birliklar esa ko'proq xalq og'zaki ijodi, dehqonchilik, chorvachilik, oilaviy munosabatlar va sharqona tafakkur bilan uzviy bog'liq. Mazkur tafovut tarjimada shakliy ekvivalent topishni qiyinlashtiradi hamda tarjimondan lingvomadaniy transformatsiyalarni qo'llashni talab etadi. Tarjimashunoslikda idiomalarni adekvat tarjima qilish masalasi hali ham dolzarb ilmiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki ayrim hollarda idiomaning semantik mazmuni to'liq saqlansa-da, uning pragmatik ta'siri yo'qoladi; boshqa hollarda esa emotsional-ekspressiv xususiyatlar saqlanib, konseptual mazmun qisman o'zgaradi.

Shuning uchun tarjima sifatini baholashda faqat semantik ekvivalentlik emas, balki funksional va pragmatik ekvivalentlikni ham hisobga olish zarur.

Mazkur tadqiqotning maqsadi ingliz tilidagi idiomalarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida qo'llaniladigan lingvopragmatik transformatsiyalarni aniqlash, ularning kommunikativ samaradorligini baholash hamda tarjima amaliyotida eng maqbul strategiyalarni ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- ingliz tilidagi idiomalarning semantik va pragmatik xususiyatlarini tavsiflash;
- idiomalarni tarjima qilishda uchraydigan lingvomadaniy muammolarni aniqlash;
- tarjimada qo'llaniladigan transformatsiya usullarini tizimlashtirish;
- badiiy matnlardan tanlangan idiomalar misolida tarjima strategiyalarining samaradorligini tahlil qilish;
- tarjima jarayonida pragmatik adekvatlikni ta'minlash bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda ingliz tilidagi idiomalar faqat leksik yoki frazeologik birlik sifatida emas, balki kommunikativ-pragmatik birlik sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, o'zbek tiliga tarjima jarayonida qo'llanilgan transformatsiyalar funksional ekvivalentlik nuqtai nazaridan baholanadi hamda pragmatik ta'sirning saqlanish darajasi mezon sifatida taklif etiladi. Mazkur tadqiqot natijalari tarjimashunoslik nazariyasini boyitish, tarjimonlar tayyorlash jarayonida frazeologik birliklarni o'qitish metodikasini takomillashtirish hamda ingliz tilidan o'zbek tiliga badiiy tarjimalar sifatini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI

Idiomalarni tarjima qilish masalasi tarjimashunoslikning eng murakkab yo'nalishlaridan biri sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keng tadqiq etila boshladi. Turli ilmiy maktab vakillari mazkur masalaga semantik, funksional, pragmatik va lingvomadaniy nuqtai nazardan yondashganlar. Ularning qarashlari idiomalarni

tarjima qilish metodologiyasini shakllantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Amerikalik tarjimashunos **Eugene Nida** tarjimada "formal equivalence" va "dynamic equivalence" tamoyillarini ilgari surib, tarjimaning asosiy vazifasi asl matnning shaklini emas, balki uning kommunikativ ta'sirini qayta yaratishdan iborat ekanligini ta'kidlaydi. Nida nazariyasiga ko'ra, tarjima qilingan matnni o'quvchi qanday qabul qilsa, asl matnni o'quvchi ham shunga yaqin taassurot olishi kerak. Ushbu yondashuv idiomalarni tarjima qilishda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ularning aksariyati so'zma-so'z tarjimaga bo'ysunmaydi.

Peter Newmark esa tarjima jarayonida semantik va kommunikativ tarjima usullarini farqlaydi. Olimning fikricha, badiiy matnlarda uchraydigan idiomalarni tarjima qilishda kommunikativ tarjima usuli ko'proq samara beradi. Chunki bunda tarjima matni maqsadli auditoriya uchun tabiiy va tushunarli bo'ladi. Newmark idiomalarni tarjima qilishda ekvivalent frazeologik birlik mavjud bo'lsa, undan foydalanishni, bunday birlik bo'lmagan hollarda esa tavsifiy tarjimani qo'llashni tavsiya etadi.

Shu nuqtai nazardan, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat tadqiqotlarda idiomalarning semantik ekvivalentligi asosiy mezon sifatida qaralgan. Biroq ingliz tilidagi idiomalarni o'zbek tiliga tarjima qilishda lingvopragmatik transformatsiyalarni tizimli ravishda o'rganish hamda ularning kommunikativ samaradorligini baholash masalasi hali ham yetarlicha tadqiq etilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ingliz tilidagi idiomalarni o'zbek tiliga tarjima qilishda qo'llaniladigan lingvopragmatik transformatsiyalarni aniqlash va ularning kommunikativ samaradorligini baholashga qaratilgan. Tadqiqotda sifat (qualitative) tahlil usuli asosiy metod sifatida tanlandi, chunki idiomalar semantik, pragmatik va lingvomadaniy jihatdan murakkab birliklar bo'lib, ularni faqat miqdoriy ko'rsatkichlar orqali baholash ilmiy natijaning to'liqligini ta'minlay olmaydi.

Tadqiqotning empirik bazasini ingliz tilidagi badiiy asarlar, publitsistik matnlar hamda zamonaviy ingliz tilining izohli va frazeologik lug'atlaridan tanlab olingan idiomalar tashkil etdi. Tahlil uchun tanlangan birliklar o'zbek tiliga tarjima qilingan asarlar bilan qiyosiy ravishda o'rganildi. Bunday yondashuv tarjima jarayonida yuzaga keladigan transformatsiyalarni amaliy misollar asosida aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Qiyosiy-tahliliy metod. Ushbu metod yordamida ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning semantik tuzilishi, grammatik xususiyatlari hamda funksional vazifalari o'zaro taqqoslandi. Mazkur metod ikki til tizimidagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash imkonini berdi.

Kontekstual tahlil metodi. Idiomaning haqiqiy ma'nosi ko'pincha nutqiy vaziyat orqali namoyon bo'ladi. Shu sababli har bir frazeologik birlik alohida emas, balki matn kontekstida tahlil qilindi. Bu usul idiomaning pragmatik yuklamasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Lingvopragmatik tahlil. Tadqiqotda idiomaning adresatga ko'rsatadigan kommunikativ ta'siri, emotsional-ekspressiv xususiyatlari va muallif niyati bilan bog'liq jihatlari o'rganildi. Natijada tarjima jarayonida faqat semantik emas, balki pragmatik ekvivalentlik ham baholandi.

Transformatsion tahlil. Tarjima jarayonida qo'llanilgan modulyatsiya, tavsifiy tarjima, kompensatsiya, adaptatsiya, konkretlashtirish va umumlashtirish kabi transformatsiyalar alohida tahlil qilindi. Har bir usulning qo'llanish sabablari va kommunikativ natijasi ilmiy jihatdan asoslandi. Tadqiqotning nazariy asosini E. Nida tomonidan ishlab chiqilgan dinamik ekvivalentlik nazariyasi, P. Newmarkning kommunikativ tarjima konsepsiyasi, M. Bakerning frazeologik ekvivalentlik modeli, Vinay va Darbelnetning tarjima transformatsiyalari nazariyasi hamda A. V. Kuninning frazeologik birliklar haqidagi ilmiy qarashlari tashkil etadi. O'zbek tilshunosligida esa

Sh. Rahmatullayevning frazeologiya sohasidagi ilmiy ishlari metodologik manba sifatida foydalanildi.

Mazkur tadqiqotda tarjima sifati quyidagi mezonlar asosida baholandi: semantik adekvatlik; pragmatik adekvatlik; lingvomadaniy moslik; uslubiy tabiiylik; kommunikativ samaradorlik.

Tadqiqot materiali sifatida ingliz tilida keng qo'llaniladigan va badiiy hamda publitsistik matnlarda faol uchraydigan idiomalar tanlab olindi. Material tanlashda quyidagi mezonlarga amal qilindi: idiomaning zamonaviy ingliz tilida faol qo'llanishi; o'zbek tilida to'liq yoki qisman ekvivalentining mavjudligi; lingvomadaniy komponentning ifodalanganligi; tarjima jarayonida transformatsiyani talab qilishi; pragmatik yuklamaning mavjudligi. Tanlangan idiomalar dastlab semantik tuzilishi bo'yicha tasniflandi, so'ngra ularning o'zbek tilidagi tarjimalari qiyosiy tahlil qilindi. Har bir misolda tarjimon qo'llagan transformatsiya turi, uning qo'llanish sababi va kommunikativ natijasi alohida baholandi. Mazkur yondashuv idiomalarni tarjima qilish jarayonini faqat til birliklari darajasida emas, balki madaniyatlararo kommunikatsiya nuqtai nazaridan ham o'rganish imkonini berdi. Natijada tarjimada pragmatik adekvatlikni ta'minlovchi asosiy omillar aniqlandi va ularni tizimlashtirishga harakat qilindi.

Idiomalarni tarjima qilishda asosiy vazifa alohida so'zlarni emas, balki frazeologik birlikning umumiy semantik va pragmatik mazmunini yetkazishdan iborat. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ingliz idiomalarini o'zbek tiliga tarjima qilishda asosan frazeologik ekvivalent, tavsifiy tarjima, modulyatsiya, adaptatsiya va kompensatsiya usullaridan foydalaniladi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz idiomalarini o'zbek tiliga tarjima qilishda asosiy muammo ularning lingvomadaniy xususiyatlarini saqlash bilan bog'liq. Frazeologik ekvivalent mavjud bo'lgan hollarda tarjima tabiiyroq chiqadi, ekvivalent bo'lmagan vaziyatlarda esa tavsifiy tarjima, modulyatsiya va adaptatsiya samarali natija

beradi. Shunday qilib, idiomalarni tarjima qilishda yagona usul mavjud emas. Har bir frazeologik birlik uning ma'nosi, qo'llanish holati va madaniy xususiyatidan kelib chiqib tahlil qilinishi lozim.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mazkur tadqiqot doirasida ingliz tilidagi idiomalarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan lingvopragmatik muammolar hamda ularni bartaraf etish strategiyalari tahlil qilindi. O'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, idiomalarni tarjima qilish oddiy til birliklarini almashtirish jarayoni emas, balki ikki xil konseptual tizim o'rtasidagi ma'no va funktsiyani qayta yaratish jarayonidir. Tahlil qilingan frazeologik birliklar asosida idiomalarni tarjima qilishda uchraydigan asosiy muammolar quyidagicha tizimlashtirildi: Idiomalar tarkibiy qismlarining alohida ma'nolaridan farqli ravishda umumiy ko'chma ma'noga ega bo'lgan birliklardir. Shu sababli ularni so'zma-so'z tarjima qilish ko'pincha noto'g'ri natijaga olib keladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, tarjimon uchun asosiy vazifa idiomaning ichki obrazini emas, balki uning nutqdagi vazifasini aniqlashdan iborat.

Masalan, **"Barking up the wrong tree"** idiomasida daraxt va it obrazi asl ma'noda emas, balki noto'g'ri yo'nalishda harakat qilish konseptini ifodalash uchun xizmat qiladi. Ushbu birlikni o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri o'girish kommunikativ maqsadni buzadi. Shu sababli funksional ekvivalentdan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Olingan natijalar tarjimashunoslikdagi zamonaviy funksional yondashuvlarni tasdiqlaydi. Xususan, Nida tomonidan ilgari surilgan dinamik ekvivalentlik nazariyasi hamda Newmarkning kommunikativ tarjima tamoyillari idiomalarni tarjima qilishda amaliy ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Biroq ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi madaniy tafovutlar sababli faqat kommunikativ ekvivalentlikning o'zi yetarli emas. Tarjimon lingvomadaniy omillarni ham hisobga olishi zarur.

Shu jihatdan idiomalarni tarjima qilishda uch bosqichli yondashuv samarali deb hisoblanadi:

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz tilidagi idiomalarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayoni ko'p qatlamli lingvistik va madaniyatlararo jarayon hisoblanadi. Idiomalar faqatgina turg'un so'z birikmalari emas, balki muayyan xalqning tarixiy tajribasi, milliy tafakkuri va kommunikativ an'analarini aks ettiruvchi murakkab til birliklaridir. Shu sababli ularni tarjima qilishda faqat lug'aviy ma'noga tayanish yetarli emas. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, ingliz idiomalarini o'zbek tiliga tarjima qilishda asosiy muammo ikki til o'rtasidagi semantik va lingvomadaniy tafovutlar bilan bog'liq. Ayrim idiomalar o'zbek tilida to'liq frazeologik ekvivalentga ega bo'lsa, ayrimlari faqat tavsifiy tarjima yoki pragmatik moslashtirish orqali ifodalanadi.

Tahlillar natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi: Birinchidan, idiomalarni tarjima qilishda shakliy o'xshashlik emas, balki funksional va kommunikativ ekvivalentlik asosiy mezon bo'lishi kerak. Chunki idiomaning asosiy vazifasi ma'lum bir fikrni obrazli, hissiy va ta'sirchan shaklda yetkazishdan iborat.

Ikkinchidan, lingvomadaniy komponent idiomalar tarjimasida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Ingliz tilidagi ayrim obrazlar o'zbek tilida mavjud bo'lmagan assotsiatsiyalarni ifodalagani sababli tarjimon adaptatsiya yoki modulyatsiya usullaridan foydalanishga majbur bo'ladi. Uchinchidan, pragmatik adekvatlik tarjima sifatini belgilovchi muhim mezon sifatida namoyon bo'ladi. Tarjima jarayonida idiomaning hissiy-ekspressiv bo'yoqdorligi, uslubiy vazifasi va adresatga ta'siri saqlanishi zarur. To'rtinchidan, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz idiomalarini o'zbek tiliga tarjima qilishda quyidagi strategiyalar eng samarali hisoblanadi: frazeologik ekvivalentdan foydalanish, tavsifiy tarjima, modulyatsiya, adaptatsiya va kompensatsiya. Ushbu strategiyalarni tanlash idiomaning semantik tuzilishi va kontekstual vazifasiga bog'liq. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda

ingliz idiomalarining o'zbek tiliga tarjimasi faqat frazeologik ekvivalentlik nuqtai nazaridan emas, balki lingvopragmatik transformatsiyalar va kommunikativ samaradorlik mezonlari asosida tahlil qilindi. Bunday yondashuv tarjima jarayonida til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Kelgusidagi tadqiqotlarda ingliz idiomalarining mashina tarjimasi, sun'iy intellekt vositalari yordamida tarjima qilinishi hamda avtomatik tarjima tizimlarida pragmatik ekvivalentlikni ta'minlash masalalarini o'rganish istiqbolli yo'nalishlardan biri bo'lishi mumkin. Umuman olganda, ingliz idiomalarini o'zbek tiliga muvaffaqiyatli tarjima qilish uchun tarjimondan nafaqat yuqori darajadagi til kompetensiyasi, balki ikki xalqning madaniy anglash, kontekstni tahlil qilish va pragmatik mos yechimlarni tanlash qobiliyati talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1) Baker, M. *In Other Words: A Coursebook on Translation*. — London: Routledge, 2018.
- 2) Newmark, P. *A Textbook of Translation*. — London: Prentice Hall International, 1988.
- 3) Nida, E. A., Taber, C. R. *The Theory and Practice of Translation*. — Leiden: Brill, 1982.
- 4) Vinay, J. P., Darbelnet, J. *Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation*. — Amsterdam: John Benjamins, 1995.
- 5) Kunin, A. V. *Kurs frazeologii sovremennogo angliyskogo yazyka*. — Moscow: Vysshaya shkola, 1996.
- 6) Rahmatullayev, Sh. *O'zbek tilining frazeologik lug'ati*. — Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992.
- 7) Komissarov, V. N. *Teoriya perevoda (lingvisticheskie aspekty)*. — Moscow: Vysshaya shkola, 1990.
- 8) Catford, J. C. *A Linguistic Theory of Translation*. — Oxford: Oxford University Press, 1965.